

ELEKTRON PUL BIRLIGI VA XAVFSIZLIK.

Qo'shmoqboyeva Zulxumorxon.


Beshariq tuman 1-son kasb-hunar maktabi, maxsus fan o'qituvchisi.

Tayanch so'z va iboralar: Elektron hujjat , imzo,electron pul ...

ANNOTATSIYA: Axborot xavfsizligi fanini o'qitishning afzallik tomonlari va ishonchliligi turli valyutalarda pul o'tkazmalari haqida fikr yuritishga o'rgatishdir. Zamonaviy texnologiyalar rivojlanib borayotgan asrda o'quvchilarga axborot xavfsizligi haqida chuqur bilim va ko'nikmalar berish hamda ularning ushbu tizim haqidagi ta'savvurlarini kengaytirish ushbu maqolaning maqsadidir.

Bugungi kunda elektron hamyon internetda onlayn xaridlarni amalga oshiradigan va u yerda frilanser, ya'ni erkin yollangan xodim (kopirayter, tarjimon, dizayner, dasturchi) sifatida faoliyat yuritadiganlar uchun ideal to'lov vositasi hisoblanadi. Bunday hamyon yordamida Siz elektron pullar bilan turli xil hisob-kitoblarni amalga oshirishingiz mumkin. Bu elektron pullarning haqiqiy pul mablag'lariga aylanishi va bank hisobvarag'iga yoki bank kartasiga o'tkazilishi oson va oddiy.

Elektron hamyon - elektron pullarni saqlaydigan hamda internetdagi xaridlar va xizmatlar uchun haq to'lash, hatto pulni bank hisobvarag'iga yoki bank kartasiga o'tkazish yoki naqd pul olish imkonini beruvchi kompyuter dasturidir. O'tkazmalar bir zumda amalga oshiriladi, ko'plab elektron pullar tizimlari hisob-kitoblar va o'tkazmalarni turli valyutalarda amalga oshirish imkonini beradi. Deyarli barcha elektron pullar tizimlarida elektron hamyonni ochish imkoniyati mavjud. MDH davlatlarida Yandeks.Pullar, WebMoney va QIWI kabi to'lov xizmatlaridan keng foydalaniladi.



Bank kartasi bo'lsa, elektron hamyon nima uchun kerak?

Elektron hamyon ishlash tamoyili bank kartasiga o'xshaydi. Uni osonlik bilan to'ldirish mumkin va dunyoning istalgan joyida u orqali to'lovlarni amalga oshirish

mumkin. To'lovlar bo'yicha cheklolar deyarli yo'q. Shunda savol tug'iladi: agar bank kartasi mavjud bo'lsa, elektron hamyon nima uchun kerak?

1. Elektron hamyonda pulni turli valyutalarda saqlashingiz mumkin. Masalan, dunyoning turli mamlakatlarida to'lovlarni amalga oshirish ehtiyoji vujudga kelsa, elektron hamyon juda qulay hisoblanadi;

2. Sayohat qilganda juda qulay, chunki hamma narsa smartfonga bog'langan bo'ladi va NFC (kontaktsiz aloqa) yordamida to'lovni amalga oshirish mumkin. Bu to'lov jarayonini ancha osonlashtiradi. Bundan tashqari, har qanday bank kartasidan (so'm) mobil ilova orqali elektron hamyonni to'ldirish mumkin;

3. Elektron hamyon orqali xalqaro to'lov tizimda pul o'tkazmalari tez va qulay tarzda amalga oshiriladi. Misol uchun Siz tez va oson usulda xorijiy mamlakatdagi boshqa shaxsning hisobvarag'iga qulay valyutada pul o'tkazishingiz mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati:

«Axborot xavfsizligi» fanidan elektron o'quv qo'llanma.2010y;

Ахборот технологияси. Ахборотларни криптографик муҳофазаси.

Маълумотларни шифрлаш алгоритми” Ўзбекистон Давлат стандарти.

О'zDSt 1105:2006.